

**O‘ZBEKISTONDA ADVOKATURA INSTITUTINING RIVOJLANISHI
YO‘LIDAGI O‘ZGARISHLAR**

Yusupov Javoxir Ilyos o‘g‘li

*O‘zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Mehant va ijtimoiy munosabatlar akademiyasi
“Mehnat sohasini boshqarish” fakulteti Yurisprudensiya yo‘nalishi 4-bosqich talabasi
Tel: +998903367064
E-mail: javayurist12@gmail.com*

***Annotatsiya.** Maqolada Advokatura sohasida bo‘layotgan o‘zgarishlar, yangilikalar va imtiyozlar haqida keltirib o‘tilgan. Konstitutsiyada Advokatura institutining kiritilishi va advokatlar mavqeyi konstitutsiyon normagacha chiqishi yozilgan. Qonunchilikda ro‘y bergan yangiliklar, advokaltarga keltirilgan yangiliklar hamda ushbu o‘zgarishlar amalda qanday qo‘llanilishi. Shu bilan birga Advokatlar palatasining ushbu o‘zgarishlarga munosabati to‘g‘risida ham qisman ma‘lumotlarga ega bo‘lishingiz mumkin bo‘ladi.*

***Kalit so‘zlar:** advokatlar palatasi, advokatura, qonunchilik, islohot, institut.*

***Аннотация.** В статье рассматриваются изменения, новшества и льготы, происходящие в сфере адвокатуры. Отмечено, что в Конституцию введён институт адвокатуры, а статус адвокатов закреплён на уровне конституционной нормы. Также изложены новшества в законодательстве, изменения, касающиеся адвокатов, и то, как данные нововведения применяются на практике. Кроме того, можно будет ознакомиться с некоторой информацией о позиции Палаты адвокатов по отношению к этим изменениям.*

***Ключевые слова:** палата адвокатов, адвокатура, законодательство, реформа, институт.*

***Annotation.** The article discusses the changes, innovations, and benefits occurring in the field of advocacy. It highlights the inclusion of the advocacy institute in the Constitution and the elevation of the status of lawyers to a constitutional norm. The article also outlines legislative updates, changes affecting lawyers, and how these changes are applied in practice. In addition, it provides some information on the position of the Bar Association regarding these changes.*

***Key words:** bar association, advocacy, legislation, reform, institute.*

KIRISH

Advokatura – advokat huquqlari va majburiyatlari barcha me‘yorlarini muvofiqlashtiruvchi; advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi shaxslarning mustaqil, ko‘ngilli, professional birlashmalari uning huquqiy maqomi, advokatlar hay‘ati, maslahatxonalari, firma va nyurolarini tashkil qilish va faoliyatini yuritish tartiblarini belgilovchi kompleks huquqiy intitut¹.

Advokatura huquqiy institut bo‘lib, u advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi shaxslar hamda xususiy advokatlik amaliyoti bilan shug‘ullanuvchi ayrim shaxslarning mustaqil, ko‘ngilli, kasbiy birlashmalarini o‘z ichiga oladi. Advokatura

¹ Advokatura darslik // Mas‘ul muharrir y.f.n., prof. D. Habibullayev – T.: TDYU, 2021. – 108 bet.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, ajnabiy fuqarolar, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarga yuridik yordam ko‘rsatadi.

Qonunchilikdagi islohotlar. So‘ngi yillardagi qonunchilikdagi islohotlar advokatlarga yengilliklar yaratish uchun yangi qonun, farmon va qarorlar qabul qilindi. Bunga misol tariqasida eng asosiy qonun Konstitutsiyaga alohida “Advokatura” bobi kirirtili va yangi moddalar bilan to‘ldirildi. Qonun osti hujjatlaridan misol tariqasida “Advokatura instituti samaradorligini tubdan oshirish va advokatlarning mustaqilligini kengaytirish chora-tadbirlarini to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikas Prezidentining 5441-sonli Farmoni, “Advokatura faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 263-sonli Qarori va “Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilindi.

Xususan, Jismoniy va yuridik shaxslarga malakali yuridik yordam ko‘rsatish uchun advokatura faoliyat ko‘rsatadi. Advokatura faoliyati qonuniylik, mustaqillik va o‘zini o‘zi boshqarish prinsiplariga asoslanadi deagan muhim g‘oyalarni Konstitutsiyaning 141-moddasida mustahkamlanishi bu Advokatura tizimida qonun ustuvorligini ta‘minlash, boshqaruv organlarini mustaqil shakllantirish, boshqaruvda davlat idoralaridan mustaqil bo‘lish, sohaga oid barcha masalalarni advokatlar hamjamiyati tomonidan hal etilishining kafolati bo‘lib hizmat qiladi.

Shuningdek, Konstitutsiyaviy qonunning 142-moddasida advokat o‘z kasbiy vazifalarini amalga oshirayotganda uning faoliyatiga aralashishga yo‘l qo‘yilmasligi, advokat o‘z himoyasidagi shaxs bilan moneliksiz va xoli uchrashish, maslahatlar berish uchun shart-sharoitlar ta‘minlanish, advokat, uning sha‘ni, qadr-qimmat va kasbiy faoliyati davlat himoyasida bo‘lishi va qonun bilan muhofaza qilinishining alohida norma sifatida belgilanganligi advokatlarning kasbiy va protsessual mustaqilligini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, o‘z kasbiy vazifalarini amalga oshirayotganda advokatning faoliyatiga aralashishga qo‘l qo‘yilmasligining Konstitutsiyaviy normada mustahkamlanganligi, advokatlarni erkin faoliyat ko‘rsatish barobarida o‘z kasbiy vazifalarini biron bir tashqi ta‘sirlarsiz to‘la to‘kis ado etilishini ta‘minlaydi.

Advokatning kasbiy faoliyatiga aralashishga yo‘l qo‘yilmasligi Konstitutsiyaviy darajada mustahkamlanishi kuchli va mustaqil advokaturaning asosiy omili bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu bob sud protsessida himoya tarafi ayblov tarafi bilan teng munozaraga kirishishini, ya‘ni tortishuv prinsipini ta‘minlaydi hamda endilikda inson

huquq va qonuniy erkinliklarinin himoya qilishda advokaturaning ro'linin oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Advokatlari, oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lgan va belgilangan tartibda advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish uchun litsenziya olgan O'zbekiston Respublikasi Advokati bo'lishi mumkin. Litsenziya olish ya'ni advokat maqomini ilish uchun ariza bergan shaxz advokatlik tuzilmasida (advokatlik firmasi, advokatlik byurosi, advokatlik hay'ati, yuridik maslahat) kamida uch oy muddatda stajirovkadan o'tishi hamda malaka imtihonidan o'tishi kerak.

Advokat ilmiy va pedagogik faoliyatdan, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi va uning hududiy boshqarmalaridagi faoliyatidan boshqa haq to'lanadigan faoliyat turlari bilan shug'ullanishga haqli emas.

Advokat o'z kasbiy faoliyatini advokatlik tuzilmasining rahbari sifatidagi ish bilan qo'shib olib borishga haqli. Ushbu holatda advokat bir vaqtning o'zida o'zining tuzilmasiga rahbar bo'ladi va jismoniy va yuridik shaxslarga malakali yuridik yordam ko'rsatish doirasida shartnoma tuzgan holda ham ish olib borishga haqli. Shuningdek advokat bir vaqtning o'zida Advokatlar palatasi xodimi, o'z advokatlik tuzilmasida rahbar hamda advokatlik faoliyati bilan shug'ullanishi mumkinligi keltirib o'tilgan. Yuqorida keltirilgan holatlardan tashqari advokat ilmiy-pedagogik faoliyat bilan ham shug'ullana oladi.

O'z kasbiy vazifalarini bajarish bo'yicha zimmasiga olgan topshiriqlar advokat uchun boshqa faoliyatga nisbatan ustuvor ahamiyatga ega bo'lishi kerak. Advokat bir vaqtning o'zida Advokatlar palatasi xodimi, tuzilma rahbari yoki ilmiy-pedagogik foaliyatidan ko'ra uning advokalik faoliyati ustun turishi keltirib o'tilgan.

Advokatlik siri advokat faoliyatida ustuvor ahamiyatga ega. Sirni saqlash muddati vaqt bilan chegaralanmaydi. Advokatlik siri advokatlik faoliyatining eng muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Avvallari advokatlik siri degan atama kuchli ahamiyatga ega emasidi lekin bugunga kelib advokatlik siri bu deyarli davlat siri bilan tenglashdi desa ham bo'ladi. Chunki, advokatlik siri bu advokat va unga ishonch bildirgan shaxslar o'rtasidagi suhbatlari haqida hech kimni bilishga haqqi yo'qligi, faqatgina ishonch bildirgan shaxsning ruxsati bilan ushbu sirni oshkor qilish mumkinligi ta'kidlab o'tilgan. Ishonch bildiruvchi shaxsdan (himoya ostidagi shaxsdan) boshqa hech kim advokatni advokatlik sirini saqlash majburiyatidan ozod qilishi mumkin emas.

Advokat ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs) tomonidan taqdim qilingan axborotni quyidagi holatlarda oshkor qilishi mumkin: ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs)ning bunga roziligi, agar bunday axborotni oshkor qilish ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs)ning manfaati yo'lida

advokatning kasbiy vazifalarini amalga oshirish uchun zarur bo'lsa; ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs) manfaatı yuzasidan boshqa advokatlar bilan maslahatlashuvlar o'tkazilganda, agar u bunday maslahatlashuvlarga e'tiroz bildirmagan bo'lsa; advokat va ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs) o'rtasidagi fuqoroviy nizoni hal qilishda o'z pozitsiyasini asoslash yoki ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs) ishtirok etgan harakatlarga asoslanib advokatga nisbatan qo'zg'atilgan intizomiy yoki jinoyat ishi bo'yicha shaxsiy himoyasini ta'minlash uchun.

Advokatlik sirini saqlash qoidalari advokatning yordamchilari va stajyorlariga, shuningdek advokatlik tuzilmalarining boshqa xodimlariga nisbatan ham amal qiladi.

Advokat o'ziga yuridik yordam ko'rsatishni so'rab murojaat qilgan shaxsga yoki ishonch bildiruvchi shaxsga (himoya ostidagi shaxsga) topshiriqni bajarish bo'yicha erishiladigan natija bo'yicha asossiz umidlar paydo qilish yoki boshqa usullar orqali ishga ta'sir ko'rsatish mumkinligi yuzasidan tasavvur hosil qiladigan va'da va kafolatlar berishga haqli emas.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, advokatura faoliyatining asosiy va muhim jihatlarini Konstitutsiyaviy normalarda mustahkamlanganligi jamiyatda advokaturaning nufuzini hamda advokatlarning obro'sini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi. O'zbekistonda advokatura instituti tarixan davlat boshqaruvidan bosqichma-bosqich mustaqil professional tizimga aylanib bormoqda. Boshqa davlatlarda esa bu jarayon asrlar davomida shakllanib, advokatlar mustaqil kasbiy sinf sifatida jamiyatda muhim o'rin egallagan.

Shunday qilib, O'zbekiston advokaturasining rivoji — bu mustaqillik, kasbiy malaka, axloqiy me'yorlar va fuqarolik jamiyati talablariga moslashish yo'lidagi uzluksiz jarayondir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Advokatura darslik // Mas'ul muharrir y.f.n., prof. D. Habibullayev – T.: TDYU, 2021. – 108 bet.
2. O'RQ 349-I-son 27.12.1996 Advokatura to'g'risida <https://lex.uz/ru/docs/-54503>
3. Advokaturaga oid korporativ hujjatlar. Корпоративные документы адвокатуры [Matn] / Toshkent: "Akademnashr" nashriyoti, 2021. – 208 bet.
4. e-advokat sayti <https://e-advokat.uz/>
5. 721-I-son O'RQ 25.12.1998 Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida <https://lex.uz/docs/-29626>
6. Advokatning kasb etikasi qoidalari [https://nrm.uz/contentf?doc=545542_advokatning_kasb_etikasi_qoidalari_\(o'zr_advokatlar_patalasining_ii_konferenciyasining_27_09_2013_y_qaroriga_8-ilova\)](https://nrm.uz/contentf?doc=545542_advokatning_kasb_etikasi_qoidalari_(o'zr_advokatlar_patalasining_ii_konferenciyasining_27_09_2013_y_qaroriga_8-ilova))